

## I.A.KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI.

Yuldasheva Sojida Zoirovna, Jizzax davlat pedagogika institute II kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Islom Karimov asarlarida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish g'oyalari. Prezident qarashlari milliy ma'naviyat nazariyasini shakllantirish yo'lida o'q tomirlarni aniq va muayyan ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'z:** Globallashuv jarayoni, axborot maydoni, ma'naviyat, ma'naviy meros, ma'rifat, tarbiya, ilm, ma'naviy tahdid, ma'naviy qadriyatlar, yengilmas kuch, o'qituvchi va murabbiylik, ilm.

Bugun biz tez sur'atda o'zgarib borayotgan tezkor axboratlashuv, glaballashuv asrida yashamoqdamiz. Sababi hozirda dunyoning istalgan joyida yuz bergan biror voqea juda tez tarqalib insoniyat u haqda o'sha vaqtning o'zida xabar topmoqda.

Globalashuv jarayoni hayotimizga juda tez kirib kelayotgani har qaysi davlatning taraqqiyoti, rivojlanishi nafaqat qo'shni davlatlarga, balki jahon miqyosida barcha davlatlar o'zaro bog'liqligini va hech qaysi mamlakat bu jarayondan chetda qolib ketmasligini ko'rsatayabdi.

Hozirda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tezkor va keng qamrovliki bunda nafaqat ezgulik yo'lida balki yovuzlik yo'lida ham foydalanish mumkin va u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib bormoqda.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlariday bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masala kishini doimo ogoh bo'lishiga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

Shu sababli insonlar o'z mustaqil fikriga ega bo'lishi, sog'lom dunyoqarashli, qat'iyatli, irodali bo'lib va milliy qadriyatlarimiz mazmun mohiyatini anglasagina bunday ma'naviy tahdidlarga bardoshli bo'la oladi.

Shu sababli mustaqilligimizning ilk yillaridan yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, ma'naviyatiga katta e'tibor berildi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida bu haqda shunday deydi:

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono, va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zbo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Hozirgi glaballashuv davrida ma'naviy olamimizni turli salbiy ta'sir va tahdidlardan asrash va himoya qilish, har qaysi inson va jamiyatning ma'naviy dunyosini asrash, odamlarni ongli yashashga, yetuklikka chorlashda eng katta kuch-ma'naviyatdir. Ma'naviyatni chindan ham ana shunday qudratli kuchga aylantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirishimiz kerak?

Har bir avlod o'z ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ajdodlari yaratgan ma'naviy qadriyatlarga suyanadi. Ildizi o'sha yerdan suv ichadi. Har bir inson bu dunyoda yashar ekan, o'zi uchun zamonga mos ammo mohiyati o'zgarmagan holda yangi ma'naviy qiyofani shakllantirishga, ajdodlari qoldirgan ma'naviy mulkka o'z hissasini qo'shishga majburdir. Ma'naviyatsiz inson bu bo'shliq demakdir. Biz bu bo'shliqni ilm, ma'rifat bilan to'ldirishimiz lozim. Ma'naviyatni shakllantirishda eng muhim vositalardan biri esa shubhasiz bu kitobdir. Kitob ajdodlar va avlodlarni bog'lovchi, tajribalarni yetkazish vositasidir. So'z san'ati va badiiy adabiyot insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan qudratli vositadir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi ham shundan.

Mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. "Ma'naviyat" nashriyotining tashkil qilinishi sababi ham shu. Bu kabi nashriyotlarimiz insonni kamolotga yetkazuvchi asarlarni chop etish maqsadini o'z oldiga qo'yib, insonning ongida, qalbida, dunyoqarashida ijobiy o'zgarishlar qilishdir. Shu orqali adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan bir qatorda, hozirgi kundagi zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar yaratilib yoshlarimiz uchun katta ma'naviy ozuqa bo'lmoqda.

Ma'naviyatni shakllantirishda yana bir asosiy omil-bu ta'lim-tarbiyadir. Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Bilamizki qadimdan ilm, ma'rifat, talim-tarbiya inson kamolati va yurt ravnaqining eng asosiy sharti, garovi hisoblangan. Ta'lim-tarbiya bu- ong mahsuli. Lekin ongni o'zgartirmasdan ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu sababli davlatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga davlat siyosati darajasida qarab, katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizning, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi bugungi yosh avlodning qanday ta'lim-tarbiya olishiga bo'liq ekanligini va yuksalish ham, najot ham ilmda ekanligini har birimiz chuqur anglab turibmiz.

Yoshlar tafakkurini o'stirish, beraloyatgan axborotni qabul qilgan zahoti uni qayta ishab chiqish, tanqidiy tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarish bilan bog'liq holatlarga erishish hamda zarur ko'nikma, malakalarni shakllantirish ta'lim sohasining asosiy vazifalaridan biri. Bunda esa o'qituvchi va murabbiylarning o'rni beqiyos. Kelajagimiz sohiblari yangi avlod, yangi tafakkur egalarini tarbiyalashdek ma'suliyatli ado etishda avvalo ana shu masuliyatli, mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'I maktab bo'lsa, kasblar ichida eng ulug'i o'qituvchilik va murabbiylik deyilgani ham bejizga emas. O'qituvchi va murabbiylar o'zining bilim va tajribasi, istedod va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko'z nuri va qalb qo'rini ayamasdan ma'rifat yolida beminnat xizmat qilib, yurt kelajagi bo'lgan yoshlarning qalbiga ilm ziyosi, ezgulik yog'dusini baxsh etib, o'quvchilariga hayot maktabini beradigan mo'tabar zotlardir.

Yoshlarimizning ma'naviy olamini boyitish, ularni ilmli, ma'rifatli qilib tarbiyalash yo'lida nafaqat o'qituvchi murabbiylar balki barchamiz birlashib, millatimiz ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib borish yo'lida harakat qilishimiz va bu borada avlodlarga namuna bo'lishimiz kerakligini har birimiz his qilib, doim harakatda bo'lishimiz kerakligi hozirgi zamon talabi. Shundagina hozirgi globallashuv davrida avlodlardan meros yengilmas kuch –manaviyatimiz orqali buyuk kelajak yarata olamiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. Istialol va ma'naviyat. T., 1994.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.-«O'zbekiston»-1996,
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T.- «O'zbekiston»-1996,
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.- «O'zbekiston» - 1996,
7. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. 1997 y. 6-jild,
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000.